



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№16
2 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
16-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
16-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-15**

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 41б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1.Sapayeva Barno Sultonnazirovna	
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SINF DAN TASHQARI TO'GARAKLARDA FORTEPIANO IJRO QILISHNI O'RGATISH USHLUBLARI.....	7
2. Боймуминов Хайриддин Мусурмонкул угли	
ЎЗБЕКИСТОНДА ХОР САЊАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	12
3.Vozorova Nodira Bobomurodovna	
MUSIQANING MADANIY HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI.....	15
4.G'ofurova Nilufar	
BARHAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MUSIQA VA MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING AHAMIYATI.....	17
5.Kosimov Abdulaziz Durdikulovich	
ABDULAZIZ IMOMOVNING XONANDA HAMDA BASTAKOR SIFATIDA SHAKLLANISHIGA OLIB KELGAN IJTIMOY - MADANIY OMILLAR.....	20
6.Nazarova Iroda Zayniddinovna	
MUSIQA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI.....	22
7.Rahmonova Go'zal Ilhom qizi	
OPERA JANRI TARIXIGA BIR NAZAR.....	25
8.Shoimqulov Umidjon Husniddin o'g'li	
MILLIY CHOLG'ULARIMIZ KECHASI VA BUGUNI.....	27
9.Исакова Дилноза Назиржон кизи	
MUSIQA TINGLASH VA TAHLIL QILISH MUSIQIY - NAZARIY BILIMLARNI ЎZLASHТИРИШ КАЛИТИ.....	29
10.М. М. Махмудова	
РОЛЬ МУЗЫКИ В УЗБЕКСКОМ ТАНЦЕ.....	32
11.А.И.Ешимбетова	
КЛАССИЧЕСКАЯ МУЗЫКА И МОЛОДЕЖЬ.....	35
12.Feruza Toshpo'latova	
MAQOM- SAN'ATNING QADIMIY ILDIZI.....	38



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SINF DAN TASHQARI TO'GARAKLARDA FORTEPIANO IJRO QILISHNI O'RGATISH USLUBLARI

Sapayeva Barno Sultonnazirovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi
24-maktabning oliy toifali musiqa fani o'qituvchisi
Rajapov Rashid Yuldashovich
24-maktabning oliy toifali musiqa fani o'qituvchisi
Telefon:+998(91) 437 30 28
sapayevabarno78@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida sinfdan tashqari tashkil qilingan to'garaklarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga fortepiano cholg'usida ijrochilik mahoratlarini oshirish, musiqa asarlarini ijro etish uslublari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:Fortepiano, klaviatura, nota, pastki registr, o'rta registr, yuqori registr, legato, non legato,akkord, ichki eshitish, qobiliyat, ritm, metr, takt, o'lchov, skripka kaliti, repertuar, pyesa, etyud, bas ovozi, imitatsion polifoniya, ovozosti polifoniya.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida san'at, ayniqsa musiqa san'ati rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir iste'dod egasi o'z xohishi va imkoniyati doirasida tarbiyalanishga, saboq olishga haqli va buning uchun shart-sharoitlar mavjud.

Musiqa ta'limining har bir bosqichi jahon andozalarining ilg'or pedagogik ish namunalari asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich bosqichning o'zida musiqa madaniyati, musiqa san'atining nazariy hamda amaliy bilimlariga ega bo'ladilar. Musiqa savodi va nazariyasi, solfedjio kabi fanlar musiqani nazariy o'zlashtirishga qaratilgan. Ijrochilik bilan bog'liq mutaxassislik darslari o'quvchilarda mutaxassislik ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshlang'ich ta'lim tizimi muayyan ixtisoslik, ya'ni professional darajadagi mutaxassis tayyorlashning ilk bosqichidir.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish, bunda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg'u berish maqsadida 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Bunga ko'ra, dastlabki tashabbus ya'ni yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodlarini yuzaga chiqarish hisoblanadi. Aynan mazkur tashabbusning amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida hozirgi davrda yosh avlodga o'z qobiliyatini, iqtidorini namoyon etish, rivojlantirish va o'z mahoratini o'stirish uchun barcha tashkiliy va moddiy shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.

Bugungi kunda o'quvchilarning darsdan tashqari va maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yurtimizning barcha jabhalarida turli yo'nalishdagi ko'plab fan va kasb-hunar to'garaklari bilan bir qatorda umumta'lim maktablarida darsdan tashqari



musiqaga yo`naltirilgan turli xil cholg'uchilik to`garaklari hamda musiqiy havaskorlik jamoalari faoliyat ko`rsatmoqda.

Cholg'u ijrochiligi musiqa san'ati sohasida eng ommalashgan turlaridandir. Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg'u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg'ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg'usi o'zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o'rin tutadi. Barcha muammolarning yechimi, ya'ni kaliti ilm bo'lgani kabi fortepiano mutaxassisligini egallash uchun maktabda sinfdan tashqari tashkil etilgan to'garaklar orqali amalga oshirish mumkin. Bu kabi to'garaklar kasbiy tayyorgarlikni nazariy hamda amaliy mustahkamlaydigan tarkibiy qismi hisoblanadi. Forteplano to'garagining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarga o'z ishiga ongli munosabatda bo'lish;

- o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otish;


- o'quvchi ongida tahliliy fikrlashni rivojlantirish;

- o'z ijrochilik tajribalarini umumlashtira olish;


- uslubiy adabiyot va o'quv qo'llanmalar bilan ishlay olish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quvchi bolalik davridan shaxsiy ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi va bunda muntazam tayyorlanib borishi juda muhimdir. Shu bois fortepiano ijrochiligini boshlang'ich sinflarda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ayniqsa, fortepiano cholg'u ijrochiligi bolalarning boshlang'ich davrida juda jiddiy shug'ullanishlarini talab etadi. Chunki, ularning keyingi mutaxassislik bosqichlarida katta yutuqlarga erishishlari ana shu boshlang'ich saboq va mashqlarga bog'liqdir. Demak, boshlang'ich musiqa ta'limining asosiy vazifalaridan biri - iqtidorli bolalarni kashf etib, o'rta tizimda o'qishni davom ettirish uchun tavsiya etishdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'limda ilk darsdanoq fortepiano cholg'usining tuzilishi haqida gapirib berilsa, u bola uchun jida qiziqarli bo'ladi. Klaviaturani ko'rsatib, o'rta, pastki va yuqori registrlarning yangrash xarakterlarini chalib namoyish etish zarur.



Ilk darslarda o'quvchi tovushlarning nomlarini o'rganadi - do, re, mi, fa, sol, lya, si. Mo'ljal sifatida qora klavishlar xizmat qiladi (ikkita va uchtdan guruhlangan holda). Aynan o'sha qora klavish orqali o'quvchi oq klavishlarni tezda topa olishiga erishish lozim.






Do Re Mi Fa Sol Lya Si Do Re Mi Fa Sol Lya Si Do
Uyga vazifa sifatida tovushlarni har xil oktavada aniqlash bo'yicha qator vazifalarni berish mumkin.

O'quvchini chalishga o'rgatishdan avval uni cholg'u oldida to'g'ri, qulay va erkin o'tqazish kerak.

Fortepianoda to'g'ri o'tirish holati



O'quvchining fortepiano ijrosi paytida qanday o'tirishi hamisha o'qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Ammo bu masala bo'yicha hadeb o'quvchini bezovta qilaverish kerak emas.

Legato uslubini egallash, alohida tovushlarni bosishni o'rganish ko'nikmasi yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. (odatda, 3-barmoqdan boshlab, so'ngra 2 va 4, keyin esa 1 va 5- barmoqlarga o'tiladi); bu mashqlar navbatma-navbat o'ng va chap qo'llar bilan chalinadi. Forteplano ijro imkoniyatlarini egallashda non legatodan boshlash yaxshi samara berib, o'qishning birinchi qadamlaridanoq qo'lning barcha qismlari koordinatsiyasini tarbiyalaydi, mushaklarni erkin tutishga imkon yaratadi va to'liq kuychan ovoz chiqarishga yordam beradi.

Ilk mashqlarni bajarish vaqtida o'quvchining e'tiborini tovush sifatiga qaratish lozim. Tovush kuychan va uzoq sadolanib turishi kerak. Shu bilan birga rangsiz, qo'pol, taqillagan tovushdan qochish lozim. Harakat vaqtida bilak erkin bo'lib, qo'l yarim doira bo'yicha mayin yurishi kerak. Bunda barmoq klavishga har qanday xatoliksiz, ravon tushishi kerak. Bu ko'nikma esa yillar davomida tinimsiz mukammallashtiriladi (qo'shaloq notalar, akkordlar, passajlarning parchalari materialida).



Fortepianoda ijro qilish holati



Shuni ta'kidlash kerakki, ovoz chiqarish ko'nikmalari ustida ishlash uslubiyotida ovoz masalasini to'g'ri hal etish muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchida badiiy maqsad va pianinochilik vositalarining o'zaro munosabatini to'g'ri tushunishga o'rgatadi. O'quvchi bilan ovoz ustida ishlashda o'qituvchi bir necha kuychan sadolanadigan tovshlarni chalib, o'quvchi bu tovushlarni e'tibor bilan eshitib ko'rishni taklif qilish kerak. So'ngra o'quvchi xuddi shu tovshlarni ko'rsatilganidek chalib ko'rsin. Bunda o'qituvchi chalib ko'rsatgan tovushlar bilan o'quvchi o'zi chalib ko'rgan tovushlar orasidagi farqni sezib, kerakli natijaga erishish uchun harakat qilishi muhimdir. Bu izlanishlar o'z ustida mustaqil ishlay olish ko'nikmasini beradi.

O'quvchi alohida tovushlarni chalish ko'nikmasiga ega bo'lgandan so'ng, unga tanish bo'lgan kuy-qo'shiqlarni fortepianoda ifodalashni taklif etish kerak. Eshitish qobiliyati uncha rivojlanmagan bolalar uchun bu ish o'g'ir kechadi. Mazkur holatni yengillashtirish uchun o'quvchini berilgan kichik kuyni kuylab ko'rishga va diqqat bilan tinglab, izlanayotgan tovushning "past" yoki "baland"da joylashganini aniqlashga undash zarur. Bunday mashq o'quvchida ichki eshitish qobiliyatining rivojlanishi va klaviaturaga moslashishining erkinligini ta'minlaydi. Shuningdek, kuylarni navbatma-navbat o'ng va chap qo'lda chalib ko'rish kerak. Bu esa o'z navbatida ikkala qo'lning bir xilda rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich musiqa ta'limida yuqorida keltirib o'tilgan bosqichlardan so'ng nota yozuvini o'rgatishga o'tish kerak. Ushbu jarayon quyidagicha bo'ladi:

- asosiy chiziqlar;
- skripka kaliti;
- skripka kalitdatovushlarning nota chiziqlaridajoylashuvi;
- chiziqlar ustida va chiziqlar pastida joylashgan tovushlar;
- yordamchi chiziqlar va ularda tovushlaning joylashuvi;
- nota va pauza cho'zimlari, ularning bo'linishi va sanalishi;
- fortepiano klaviaturasida oktavalarning joylashuvi;
- yetti notaning oktavalarda joylashuvi;
- ritm, metr va o'lchovlar;
- ikki va uch hissali o'lchovlar, ularning sanalishi;
- takt va takt chizig'I haqida ma'lumotlar berilib o'rgatiladi. Keyin esa

tovshlarni asta -sekin nota chiziqlariga yozish bilan birga notani varaqdan o'qishni ham mashq qildirish kerak. Ushbu muhim ko'nikmani qo'lga kiritish uchun ko'p yillar mashq qilish kerak bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy repertuarlar juda keng. Bular orasida o'zbek milliy ruhi bilan singdirilgan X. Azimovning "Fortepiano darsligi" boshlang'ich ta'limda fortepiano maktabi bo'yicha yo'riq beruvchi qo'llanma bo'lsa, H. Rahimov va M. Otajonovning top'lamlari darslik asosida qo'lga kiritilgan ko'nikmalarni mustahkamlaydigan badiiy musiqiy



qo'llanma hisoblanadi.

O'quvchi tafakkurining badiiy jihatdan rivojlanishi uchun boshidan mazmunli turli xarakterdagi asarlarni tanlash, zamonaviy kompozitorlarning asarlari hamda Vatan va jahon musiqa madaniyatining boy merosi bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega. Pyesa va etyudlarni tanlashda badiiy va texnik ruvojni ko'zlash zarur, undagi mashq qilish materiali birinchi o'ringa chiqmay, balki o'quvchining umummusiqiy tarbiyasi masalalariga xizmat qilishi kerak. O'quvchi o'rganishi kerak bo'lgan eng birinchi kichik asarlar - bir ovozli qo'shiqlar bo'lib, ular navbatma- navbat ikki qo'l bilan chalish uchun mo'ljallanadi.

Ikki qo'l orasida taqsimlangan cholg'u kuyini yanada aniq tushunish uchun kuyning she'riy matnini qo'shiq qilib kuylash juda foydali hisoblanadi. Ikki qo'l bilan galma - gal ijro etiladigan kuyning bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tishiga alohida e'tibor berish kerak. Bir ovozli kuylardan keyin shunday asarlarga o'tish kerakki, unda o'ng qo'lda harakatlanadigan kuyga chap qo'lda harakatsiz turadigan bas jo'rlik qilsin.

O'quvchi o'qish jarayonining ilk yillaridan polifonik yozuvning hamma turlari bilan tanishishi kerak - ovozosti polifoniya, qarama-qarshi va imitatsion.

Ovozosti polifoniya - asosiy ovoz rivojlanib, qolganlari u qadar mustaqillikka ega bo'lmagan holda asosiy ovozga tobe bo'ladi. Ayrim hollarda bu ovozlar asosiy ovozni muayyan o'zgarishlar bilan takrorlab, u bilan parallel ravishda rivojlanib boradi.

Qarama-qarshi ovozlar polifoniyasi- melodik boshlovchilikning turli ovozlarda o'zgaruvchan holda rivojlanishi.

Imitatsion polifoniya- bir melodik chiziqning har xil ovozlarda ketma - ket kelishi (kanon) yoki bir melodik lavha mavzuning har xil ovozlarga o'tishi(fuga).

O'quvchi malakasining yaxshi rivojlanishi asosi-etyud ijrosini muntazam tashkil etishdan iboratdir. Chunki, etyudlar musiqa ijrochilik jarayonida mushkul holatlarni to'g'ri yechishda, fikrni jamlash va har qanday qiyinchilikdan chiqib ketishda katta ko'nikma hosil qiladi. Ijrochini nafaqat jismonan, balki ruhan tetiklashtirib, o'zida ishonch hislarini uyg'otadi, dadillikni shakllantiradi.

O'z ishini yaxshi bilgan tajribali pedagog sinfdan tashqari to'garaklarda o'quvchini tarbiyalashda har bir bosqichga katta e'tibor bilan yondashishi kerak. O'qituvchi fortepiano to'garaklariga nisbatan o'quvchida qiziqish uyg'ota olishi va ushbu qiziqishni oshira olishi kerak. Boshlang'ich sinflarda fortepiano mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosi turli musiqa asarlari ustida ishlashdan iborat bo'lib, ular ana shu jarayonda har xil janrlar va uslublar bilan tanishadilar, asarning musiqiy tilini o'zlashtiradilar, texnikaviy qiyinchiliklarni yengish uslublarini o'rganadilar va hakoza.

Respublikamizdagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, maktabdan tashqari va sinfdan tashqari musiqiy ta'lim mashg'ulotlarida bolalarning musiqiy idrokini shakllantirish, rivojlantirish hamda to'g'ri yo'naltirish muammosi yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, fidoiy vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlodni fortepiano mutaxassisligini mukammal egallashi uchun ta'lim - tarbiya sinfdan tashqari to'garaklarda boshlang'ich sinfdan boshlab olib borilsa, biz pedagoglar kutgan natijaga erishamiz yetuk mutaxassis yetishib chiqqanligini guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabova D. Forteplano mashg'ulotlari. "O'qituvchi". T., 1994
2. Akbarov I.A. Musiqa lu'g'ati. T., 1987
3. Muhammadjanovna Z. Forteplano ansamblini o'qitish uslublari. "Turon-Iqbol". T., 2010



ЎЗБЕКИСТОНДА ХОР САНЪАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.

Боймуминов Хайриддин Мусурмонкул угли.

Тер ДУ мусика таълими ва санъат мутахассислиги магистранти.

+998997160218

Аннотатсия: Ушбу тезисда мамлакатимизда хор маданиятининг ривожланиши ва хор жамоаларининг пайдо булиш тарихи хақида умумий маълумот ва фикрлар юритилади.

Клит сузлар: Хор жамоаси, Капелла, бастакорлар, ижод, асарлар.

Мустақиллик шароитида халқнинг маънавий маданиятини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш ишлари, муҳим давлат сиёсати даражасига кўтарилган масалаларга айланди. Халқ анъаналарини ва қадимги "Наврўз" каби байрамларни тиклаш, янги мустақиллик конституцияси билимлар ва мураббийлар байрамларини жорий этиш, халқаро "Шарқ тароналари" мусиқа фестивали ва анжуманларни ташкил этиш бунинг ҳаммаси мусиқа шу жумладан хор маданияти соҳасида янги шаклларни излаб топиш фаолиятини жадаллаштириш, биринчи собиқ президентимиз Ислон Абдуғаниевич Каримов томонидан ушбу гоё илғор сурилди. Ушбу ишларни ҳозирда президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев томонидан давом эттирилмоқда. Ҳозирда айнан маданият соҳасида янги қарор ва фармойишлар қабул қилиниши мусиқа ва санъат соҳасида жадал ривожланишни тақозо этмоқда.

Ўзбекистон республикаси президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19-март куни ёшларга эътиборни кучайтириш, ёш авлодни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологияларидан тўғри фойдаланиш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтди. Айнан бешта ташаббуснинг 1-босқичи мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга катта ёрдам беради. Мамлакатимизда болалар ва санъат мактабларининг барпо этилиши ва қайтадан рекантрүксия қилиниши ва ҳар бир мутахассисликка оид бўлган мусиқа асбоблари билан таъминланиши маданият соҳасида кўзга ташланадиган ютуқлардан бири десак муболаға бўлмайди. Биринчи президентимиз таъкидлаганидек: "Тарихни унутиб келажакни қуриб бўлмайди". Зеро ҳар бир фаннинг ривожланиш тарихи бўлганидек мусиқа маданияти соҳасида ҳам ривожланиш қатламлари мавжуд бўлиб

Ўзбекистонда хор жамоаларининг пайдо бўлиш тарихи қуйидагича:

XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек мусиқа маданияти тарихидаги энг ажойиб даврлардан бири ҳисобланади. Ижтимоий-тарихий ва маданий жиҳатдан муҳим ўзгаришлар билан нишонланган янги замон ўз даврининг илғор гоёларини олийжаноб асарларда акс эттириб бера оладиган янги санъатни, янги ижро жамоалари, мусиқа ижод йўналишларини юзага келтирди. Мусиқа санъатининг аввалги тараққиётини умумлаштириб берган ва уни янада олдинга сурган ўзбек бастакорлари ва композиторлари ижодларида турли мусиқа жанрларининг яратилишига сабаб бўлди. Маълумки мусиқа жанрлари симфоник, хор, вокал симфоник, камер вокал мусиқалари ва барча мусиқа жанрларида чиндан ҳам улкан ютуқлар қўлга киритилди.

Ўзбек мусиқаси жаҳон мусиқа маданиятидан ўрин ола бошлади. Ўзбек композиторлари ва ижрочилари нуфузли кўрик танловларда қатнашиб етук



совринлар билан тақдирланмоқдалар . бинобарин хор муסיқасини кескин равишда ривож топиши, ўша даврда хор санъати ва ижрочилигига бўлган қизиқишни англатади.

Ҳаваскорлик хор тарихи . Ҳаваскорлик хор жамоалари октябр инқилобидан сўнг оммани сиёсий ижодиётини ўстириш, оммани уйғотиш унинг ижодий фаолиятини ташкил қилиш ҳақида кўплаб маълумотлар келтирилган. Бадиий ҳаваскорлик сотсиал эҳтиёж бўлиб у собиқ иттифоқ даврида туғилди, шаклланди ва ўсди. 1920-йиллардан бошлаб республикамизда рақс вах ор жамоалари мактабларда, ўқув юртларида тузилиб кенг тарқалди. Ҳар бир тўғарақларда кичик хор ансамбли бўлиб, яллалар, лапарлар, револутсион қўшиқлар ва марсиялар ижро этилар эди. Шу йилларда Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг фаолияти муҳим аҳамиятга эга. Шу даврларда шаҳар ва қишлоқлардаги мактабларда ҳаваскорлик театр, хор тўғарақлари ташкил қилинди. Бу жамоалар хор, рақс ва бадиий сўз гуруҳларидан иборат эди.

Мактаб театр ҳаваскорлик тўғарақларини ташкил этишда В.Сакович, Али Ардобус каби ташаббускорлар жонбозлик кўрсатди. 1919-йил Сакович 300 та болани мактаб (хор, рақс ва драма) театрига бирлаштирди. "Зебинисо" мактабида қизлар хори, кейинчалик бу хор "Санъатчи қизлар" номи билан юритилди. 1919-йилда Ш.Шоумаров "Намуна" номли ўзбек мактабида хор группасини очади. 1922-йилда Саодатхоним Эникеева Тошкент импросида ўзбек қизларидан хор жамоалари туздилар. Марғилонда Уста Олим Комилов, Самарқандда Матюсуф Харратов Туркистон fronti қисларида ҳам интернатсионал концерт бригадалари ташкил топади. Улар оммавий қўшиқларни ва миллий ашулаларни куйлаш билан бирга ўзлари ҳам қўшиқлар тўқишар ва куйлашар эди. Масалан: "Ботир аскар, Соқчи" ва шунга ўхшаш жуда кўп куй ва қўшиқлар ушбу хор репертуарларидан ўрин эгаллади. Ҳаваскорлик хорини ташкил қилиш асосан икки даврга бўлинади: биринчи даврга ҳаваскорлик хор каликтивини ташкил қилиш учун бажариладиган барча тайёргарлик ишлари киради, иккинчи даврга раҳбарнинг хор билан биринчи учрашуви хонандаларнинг восал муסיқий қобилиятларини текшириш ва овозларини аниқлаб олиш , хор партияларини тўғрилаш овозларга ажратиш (дивизи) ишлари ҳисобланади. Илк бор жамоа бўлиб қўшиқ айтиш 1930-йилларга тўғри келиб айни шу вақтларда хор ҳаваскорлигида янги бурилиш пайдо бўлади. Янги қўшиқлар етук бастакорлар томонидан хор жамоалари учун ёзилади ва ижро этилади. Жумладан Ю.Ражабий , И.Икромов, О.Насимов, Ф.Содиқовлар бир -икки овозли хор қўшиқлари яратадилар. Мисол учун : Ю.Ражабийнинг " Бизнинг қишлоқ, Ф.Содиқовнинг "Хорманг энди калҳозчилар" каби қўшиқлар хор жамоаларида кенг тарқалган. 1934-йилда Тошкентда ҳаваскорлик санъатининг вилоят муסיқа бадиий олимпиадаси ўтказилган. Минг кишилик қўшма хор 300 кишилик духовой аркестр ижросида юқоридаги асарлар ижро этилган . 1937-йил Москвада ўтган Ўзбекистон адабиёти ва санъати декадаси хор жамоалари фаол қатнашадилар. 1938-йилда республика олимпиадасига асосан мактаб ва ўқув юртлари хор жамоалари , ҳаваскорлик тўғарақлари сон жиҳатдан кўпайди. Урушгача бўлган даврда хор жамоалар сони кўпайгани билан сифат жиҳатидан уни сон ижрочилиги жиҳатдан устунлик қилар эди. 1943-йилдан бошлаб республика ижодий уйи ўз фаолиятини давом эттира бошлади. 1940-йилларнинг 2-ярмидан бошлаб барча хор жамоаларининг иши тиклана борди. 1946-йилда бадиий ҳаваскорликнинг иккинчи олимпиадаси ўтказилган бўлиб бунда йигирма минг кишини ўз ичига олган мингдан ортиқ ҳаваскорлик жамоалари қатнашган эди. 1949-1950 йилларда 3-республика олимпиадаси ўтказилган. Бунда 25 минг киши қатнашган. 1950-йиллардан бошлаб хор ҳаваскорлигининг кўп овозлилик тури шакллана борди.



Муסיқа маданиятининг худди шу даврида профессионал хор санъати узил-кесил қарор топди.

Республикада профессионал хор капелласи, ҳаваскор хор жамоалари, маданият саройлари ва ўқув муассасаларида турли шаклдаги хор жамоалари ташкил этилди. Ўзбекистонда профессионал хор санъати энг кеч ривожлана бошлаган санъат турларидан биридир. Ўша вақтларда зарур шарт-шароитлар йўқлиги ва малакавий ижрочи педагогларнинг йўқлиги асосий сабаб ҳисобланган. Хор санъатини амалда ривожлантириш учун, муסיқа ўқув юртлири очиш малакали хорместрлар, бастакорлар тайёрлаш керак эди. Шундай миҳим масалаларни бажаришда бир қатор рус муסיқа санъати арбоблари В. Успенский, Э.Романовская, Н. Миронов, Р.Глиер, С.Восиленко, А.Казловский ва бир қатор ўзбек профессионал муסיқачиларнинг ҳиссаси катта. Профессионал хор ижоди ва ижрочилигининг оддий формалари муסיқали драммаларда учрайди. Икки эпизодик уч овозли фактуралар учраб туради. Бунга асосий сабаб бастакорлар учун шароит етмаслигини яхши билишар ва уч-тўрт овозни ишлатмасдилар.

30-йилларнинг 2-ярмида бу иш такомиллаша борди. 1936-йил Ўзбекистон радиоси қошида ўзбек хори тузилди ва янги тузилган Ўзбекистон Давлат Филармонияси қошида хор капелласи ташкил қилинди. 1937-йилда хор жамоаси бастакорлари М.Ашрафий ва Т.Содиқовларнинг тўрт овозли кўшиқлари ижро маҳорати бўйича тайёрланди. 1934-1937 йилларда Москва консерваториясида кўпгина бастакорлар Зокиров, Абдурахмонов, Давидов, Насимов, Ҳошимов, Қори Ёқубов, М.Бурхонов, С.Юдаковлар таҳсил олди. Ёш ўзбек бастакорлар, рус бастакорлари билан ижодий ҳамкорликда ўзбек миллий операсини яратишди. Жумладан С.Василенко ва М.Ашрафий "Бўрон" операси (1939) 1940-йилда "улуғ канал" Р.Глер ва Т. Содиқовларнинг "Лайли ва Мажнун" операси. Уруш йилларида Казловскийнинг "Улуғбек", "Маҳмуд Таробий" опералари ёзилган. 1952-йилда Ўзбекистон Давлат Филармонияси қошида биринчи профессионал хор акапелласи ташкил қилинди. Раҳбар Валенков(1906-1969) ва хормейстери этиб А.Султонов (ўша йили Тошкент давлат консерваторияси талабаси) тайинланган эдилар. Шунини таъкидлаб ўтиш керакки бу хор капеллада 67 киши бўлганлигини айтиб ўтиш жоиз. Бу капелла учун М.Бурхонов жўрсиз хор кўшиқлари яратди (акапелла). Жумладан: "Чашми сиёх", "Дилбар" каби асарлари ижро қилинган ва бугунги кунда улмас асарлар сирасидан урин эгаллаган.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

- 1.Ш. Рузиев" Хоршунослик" Тошкент 1987 йил.
- 2.Р.Н Мухиддинова" Хоршунослик асослари" Тошкент ТДПУ . 2008 йил.
- 3.О.Содиқов "Хор партитурасини уқиш" Г.Гуллом номидаги нашриёт уйи. Тошкент 2004 йил.
- 4.Ўзбек муסיқа тарихи 1 , 2 том Тошкент 1973 йил.



MUSIQANING MADANIY HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNINI

Bozorova Nodira Bobomurodovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

17-son maktab musiqa madaniyati fani o'qituvchisi

Tel: +998973657868

Annotatsiya: Maqolada musiqaning hayotimizdagi roli, musiqa fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar va o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, musiqa darslari, pedagogik mahorat, barkamol inson.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oila, maktab va jamiyatning ahamiyati katta. Chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi.

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy oзуqa beradi.

Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish.

Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi;
- ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarlari badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, boialar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng

dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod oзуqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan oзуqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak

ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatning barpo etilishi, ularning qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi"



deb takidlab o'tgandi o'z asarlarida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jixatdan o'qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosliklariga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda

qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimining amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir.

O'qituvchilik kasbi sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. U o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rish hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashishi, har bir darsni o'qituvchilarning hayot tajribasiga bog'lagan holda olib borishi, hilma-hil metodlar, innovatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. O'z kasbiy mutaxassisligini puxta egallagan bo'lishi, bolalar ovoziga o'zining ovozini moslab kuylay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, sinfdan tashqari to'g'aralarga o'qituvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlarda, tadbirlarda o'qituvchilar bilan faol ishtirok etishi kerak,

O'qituvchi har bir darsini ssenariy muallifi, artisti, ijrochisi hamda rejissyori bo'lishi bilan birga zamon bilan hamnafas qadam tashlashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbini egallash uchun albatta kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi dardkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.
2. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari.
3. www.google.uz



BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA MUSIQA VA MILLIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING AHAMIYATI

G'ofurova Nilufar

**Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 38-umumiy o'rta talim maktabining
musiqa madaniyati fani o'qituvchisi Tel: 90-560-06-90**

Annotatsiya:Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida bugungi kunda milliy qo'shiqchilik san'atining komil inson shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati haqida dolzarb masalalari qamrab olingan. Shuningdek, muallif ta'lim tizimda musiqiy ta'limni maktabgacha tarbiya muassalaridan boshlab kuchaytirmoq, bu yo'lda uchrayotgan to'siq va muammolarni bartaraf qilishning yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Milliy qo'shiqchilik, qadriyatlar, maqom, musiqiy meros, janrlar, bastakor, estetika.

Bugungi kunda o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining komil inson shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatiga yangicha yondoshuv nihoyatda zarur bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Musiqqa deb atalmish ilohiy bu mo'jizada shunday bir-sehr mujassamki, unu tushinish, tasirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo'q" deb o'z so'zlarida ta'kidlagan edilar. Musiqa shunday vositaki, u barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita tasir ko'rsatadi, tinglovchi dunyo qarashini shakllantiradi. Ayni chog'da u insonning ma'naviy ehtiyojini qondiradi.

O'zbek xalqining turmush tarzi keyingi yillarda misli ko'rilmagan darajada o'zgardi. Endilikda, bugungi kun kishisi yaxshi hayot kechirish, muloqotning go'zal namunalarini namoyon etish, eng muhimi, voqelikni estetik o'zlashtirishinig o'ziga mos yo'lidan bormoqda. Bu ayni paytda, musiqiy madaniyat rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqimizning badiiy-estetik madaniyatini yuksaltirmoq uchun maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda o'tilayotgan musiqa madaniyati darslari sifatini tubdan yaxshilash, musiqa o'qitish metodini takomillashtirish, yosh avlod qalbiga milliy musiqa ohanglarini olib kirish, ayniqsa, muhimdir. Milliy qo'shiq muayyan bir millatning histuyg'u va kechinmalarini ifoda etadi, shuning uchun ham unga milliylik hosdir. Unda millatning tarixi, milliy ruhi, estetik didi, orzu va armonlari, quvonch va tashvishlari, dard va alamlari mujassamlashgan bo'ladi.

Xalqimizning milliy qo'shiqchilik san'ati inson madaniyati va jamoaviy hayotda o'ziga hos o'ringa egadir. U dam olish va kungil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurushlar, sport mashqlari va mehnat jarayonlarida muayyan vazifani bajaradi. Shuning uchun qo'shiq o'z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janr guruhlariga bo'linadi. Alla, zikr, marsiya, sarbazcha, vals, marsh, kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u, kuy, maqom yo'llari, konsert, romans va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar o'z navbatida, diniy qo'shiq, yoshlar qo'shig'i, maishiy, ommaviy, harbiy qo'shiq kabi turlariga bo'linadi.

Hozirgi rivojlanish bosqichida har bir pedagog hodim yuqoridagi sifatlarni o'ziga singdirish lozim. Davlat ta'lim standarti talablarida ham insonning ma'naviy ta'limiy sifatlari, darslarning esa milliy-manaviy sifatlariga alohida e'tibor berilgan. Bo'lg'usi musiqa san'at namoyondalarini ta'limiy islohatlar talablari asosida tarbiyalash, bilim va malakalarini oshirishda mustaqillik davrida yaratilgan qo'shiqlar ahamiyatlidir. Ayniqsa, sinifdan tashqari ishlarida yoki yakka tartib mashg'ulotlarida yuksak salohiyatli bastakorlar hayoti va ijodi bilan tanishtirish, ular yaratgan asarlarni o'rganib borish va amalda qollashni



takomillashtirish zarur.

Aynan mustaqillik haqidagi qo'shiqlarda ham xalq tajribasidagi asrlar osha sayqallangan tarbiya uslubidan foydalanilgan holda musiqiy merosimiz, milliy kuy-qo'shiqlarga murojat qilingan. Chinki, o'zbek xalqining qandayligi o'zi qoldirgan qo'shiqlar matniga yashiringan. Yoshlarni tarbiyalashda milliy his-tuyg'ular, o'zaro hurmat istiqbollari tarannum etuvchi xalq yo'lida yaratilgan qo'shiqlar yoshlar ongini ezgulikka to'ldiradi. Mustaqillikni ifodalovchi qo'shiqlar orqali dillardagi izhorlarni kuylaydilar.

Bizga ma'lumki, har bir qo'shiq musiqa orqali insonda yashirilib yotgan qobiliyatlarni tarkib toptirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Musiqa insonda sog'lom hayotiy ehtiyojini, yaratuvchanlik kayfiyatini uyg'otadi.

"Barchamiz yahshi bilamizki, - degan edilar yurtboshimiz, - fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi, shaxsni muntazam ravishda milliy musiqa san'ati va madaniyati zahirida tarbiyalab borishdan iboratdir ". Bu haqiqatdan ham xalq tajribasidagi ilg'or tarbiya uslubi bo'lib, uning markazida milliy san'at orqali tarbiyalaguvchi o'lmas qadriyatlar yotadi. Qadriyatlar qadimdan insoniyat hayotidagi eng yaxshi, ibratli uning turmushi va ijtimoiy faoliyatining hayot saboqlaridir. Hayot sabog'i, milliy musiqa tarixinig har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, davrdan-davrga, otadan-bolaga o'tib ahloqiy-ruhiy holda chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda musiqa san'atimizning dong'i butun jahon bo'ylab kezmoqda. Xalqimizning kimligi, mustaqil bo'lganimizdan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. San'atimizning nechog'li kuch-qudratiga egaligi o'z qo'shiqlarimizda aks etmoqda.

Inson hayotida, uning ulg'ayishi va shaxs sifatida shakllanib borishida musiqiy tarbiyaning roli benihoyat katta bo'lib, u inson tug'ilgandan ya'ni, go'daklik davrida aytiladigan ona allasidan to umrining ohirgi kunlarigacha inson bilan yonma-yon, shodligu-xursandchilik, qayg'u-g'am, osoyishta damlarni ham inson musiqa bilan baham ko'radi, u bilan dardlashadi, sirlashadi. Musiqani sevuvchi insonning ko'ngli ezgulikda moyil bo'ladi, yani u jaholatga qarshi samarali vosita, o'tkir quroldir. U millat tanlamaydi, lekin milliy ruh uyg'otadi.

Ta'lim tizimida, musiqiy ta'limni maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatidan boshlab kuchaytirmoq, bu yo'lda uchrayotgan to'siq va muammolarni bartaraf qilmog'miz kerak. Chunki, biz ham farzandlarimizning kelajakda jaholatdan yiroq, ma'rifatli, fozil va komil insonlar bo'lib yetilishini istaymiz. Shunig uchun ularni bolalikdan musiqasevar, adabiyot va san'atning barcha jabhalariga ihlosmand, keng fikr, ahloq-odobli, mehr-oqibatli, badiiy-estetik dun'yoqarashi yuksak qilib tarbiyalashimiz va shu ishni bolalar bog'chalaridan boshlamog'imiz lozim.

O'zbek milli qo'shiqchilik san'atida ajdodlarimizning ming yillar osha ohanglarida tizilgan mangu barhayot ruhi naqshlangan bo'lib, qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'rta asr mumtoz musiqiy merosni asrab-avaylab va o'rganib, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro anjumanlar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Akademik Yunus Rajabiy nomidagi respublika Maqom ansambilinig qayta mukammal tashkil etilishi, maqom ijrochilari ko'rik-tanlovinig muntazam o'tkazilayotganligi, O'zbekiston radiosi va televideniye orqali ko'rsatuvlarning muntazam berilayotganligi, joylarda taniqli san'atkorlarning xotira-kechalari tashkil qilinayotganligi, ana shularning hammasi o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini oyoqqa turg'izish borasidagi hayrli tadbirlardir. Qo'shiq san'atiga faqat mazmunli dam olish vositasi deb emas, balki xalqimizning ruhi va ma'naviyatini yuksaltirish, uning his-tuyg'ulari va insoniy fazilatlarini kamol toptirish, yaxshi hislatli insonlarni yetkazishning oqilona usuli deb qarash bugungi kun talabidir.

Har bir o'zbek honadoniga milliy cholg'u asbobi, milliy kuy va qo'shiq kirib borsagina, san'at tirikchilik vositasi emas, balki insoniy mohiyat va iste'dodni namoyon etish bo'lsagina, yurakdan qo'shiq aytish yoki raqsga tushish uyat hisoblanmaydigan madaniy-ahloqiy



muhit vujudga kelsagina o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining yutuqlari va unug porloq istiqbollari haqida fikr yurutish, u bilan fahrlanish huquqiga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". T. "Ma'naviyat" 2008-yil.
2. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari, T. "O'zbekiston" 1996-yil.
3. Qodirov. D.Q. An'anaviy qo'shiqchilik. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2008-yil.
4. Begmatov.S., Karimova.D., Mamirov.Q. Musiqa. 6-sinf uchun darslik.
5. Ibrohimov.O., Sadirov.J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik.
6. Mavrulov.A.A., Azimov.B.A. "Musiqiy ijrochilikda yoshlar faolligini oshirish va rivojlantirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -T.: 2010-yil.
7. Karomatov. F. "Ozbek xalqi musiqa merosi" T.1978 yil.



ABDULAZIZ IMOMOVNING XONANDA HAMDA BASTAKOR SIFATIDA SHAKLLANISHIGA OLIB KELGAN IJTIMOVIY - MADANIY OMILLAR.

Kosimov Abdulaziz Durdikulovich.

TerDU, Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi magistranti.

Abdulaziz90@mail.ru

+998906440022

Annotatsiya: Ushbu tezisda bastakor va hofiz Abdulaziz Imomovning hayoti va ijod yo'li, bastalangan kuy- qo'shiqlari, Abdulaziz Imomovning ijrochilik va bastakorlik uslublarining o'ziga xosligi, milliy etnik asoslari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bastakor, hofiz, sozanda, ustoz, xonanda, san'atkor, ijod, kuy-qo'shiq.

Bugungi kunda xalqimiz turmush farovonligining yuksalib borayotganligi san'at mahsulotlariga talabning ortishiga olib keldi. Bu esa san'at xususan musiqa san'ati sohasida ma'lum yuksak natijalarga erishgan zahmatkash bastakorlar, dirijyorlar, sozandalar va xonandalar faoliyatini ilmiy asosda o'rganishni taqozo etadi.

Tabiatni, atrofimizni o'rab turgan borliqsiz jamiyatni, odamlarsiz hayotni, yashashni esa kuy-qo'shiqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yaxshi qo'shiq, musiqadan inson qalbi, dili, ruhi ma'naviy ozuqa oladi. Hayotda shunday qo'shiqlar yaratiladiki, umri nihoyatda qisqa, ijro etilib nazardan tez qolib ketadi. Ammo qo'shiqlar borki, umrboqiy san'at asosida aylanib, muxlislar xotirasiga abadiy saqlanib xonandalarimiz tomonidan saqlanib ijro etilib kelinmoqda.

O'z san'ati, ijodiy va ijrochilik faoliyati bilan xalqimiz orasida ma'lum hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan ko'pgina san'atkorlar borki, ularning amalga oshirgan ulkan ijodi, san'ati ilmiy asosda o'rganilmagan, xalqimiz orasida keng yoyilmagan, ular mehnatini mutaxassis san'atkorlar va ma'lum kichik hududdan tashqarida ko'pchilik bilmaydi.

Shunday insonlardan biri, Surxon vohasining betakror iste'dod sohibi, bastakori va hofizi Abdulaziz Imomov bo'lib, ushbu san'atkor o'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojida alohida xizmatlari singgan shaxs desak, mubolag'a bo'lmaydi. Abdulaziz Imomov o'ziga xos ijrochilik uslubi, yorqin ijodiy yo'li orqali o'zbek va turkman ashula hamda kuylarini ijro etib, O'zbekistonda o'z ijro uslubiga ega bo'lgan hofizlardan biriga aylangandi.

Abdulaziz Imomov 1939 -yilning 24-dekabrida Surxondaro viloyati Termiz tumani Amudaryo bo'yidagi Payg'ambar orolidagi hozirgi Kaptarxona qishlog'ida tug'ilgan. U bolaligidan musiqaga, qo'shiqqa qiziqdi. Yetti-sakkiz yoshlarida bitta doira bilan o'nlab qo'shiqlarni aytar edi. Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida o'qigan.

K.Otaniyozov bilan hozirgi "Lazgi" ansamblida musiqa rahbari bo'lib ishlagan. O'zbekiston xalq artisti K.Otaniyozov boshchiligidagi O'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi "Xorazm" ansamblida musiqa rahbari hamda sozanda, xonanda sifatida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik K.Otaniyozov tashkil qilgan Chorju davlat filarmoniyasida yakkaxon xonanda sifatida bir necha yillar xizmat qilgan.

Komiljon Otaniyozovni ustoz bilib, Xorazm san'atini ko'ziga surtardi. Balki shu sababdan ham Olmaxon Hayitova, Bobomurod Hamdamov, Rahmatjon Qurbonov va Karimboy Rahmonovlarni juda sevib qadrlar, ular uchun maxsus qo'shiqlar yozgandi. "Lazgi" ansamblida ishlab yurgan paytlarida ustoz Komiljon Otaniyozov bilan Abdulaziz Imomov birgalikda o'nlab qo'shiqlarga kuy bastalagan edilar. " Kel g'aribim" , "Sanamjon" , "Naylar" qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Uning uchun san'at yaratganning buyuk ne'mati, insonlarni hayratga solish, inja va zukko muhlislarning dilini, dardini topib kuylash esa, tiriklik belgisi edi. Abdulaziz



Imomov balki tug'ma, balki favqulodda salohiyatli san'atkor, betakror qo'shiqchi edi.

Bastakorning: N.Aminjonov she'ri "Rad etma", Zaliliy she'ri "Bari gel", Xalq so'zi "Gelsin", Xalq so'zi "Elpesse", Mahtumquli g'azali "Go'zelsen", Xalq so'zi "Aybi yo'q", Xalq so'zi "Lebabima", A.Imomov so'zi va musiqasi "Ne kerak Layli", "Do'stlik", "Barobar" va boshqa shu kabi falsafiy ashulalari san'atsevar xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

Abdulaziz Imomovning sevgan tori, qayragan qalami, bulbul nafasidan boshqa "san'ati" yo'q edi. Balki shuning uchun kichkinagina mukofot, oddiygina unvon ham nasib etmagan unga. Xudoga shukrlar bo'lsinkim, san'atkor har xil yo'llar bilan olgan mukofot, unvon bilan emas, san'ati ila qadrlidir.

Ustozning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar to'plash, uni kelgusi avlodga va keng jamoatchilikka yetkazish, taqdim etish dolzarb vazifalardan biridir. Abdulaziz Imomov o'zbek bastakori, turkman qo'shiqchilik san'atida ulkan hissa ko'rsata oldi desak mubolag'a bo'lmas. Chunki ustoz yaratgan qo'shiqlar hozirda ham O'zbekiston, Turkmanistonning xizmat ko'rsatgan va xalq artistlari tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Shular jumlasidan O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston xalq artisti Bobomurod Hamdamov, O'zbekiston xalq artisti Nasiba Abdullayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Karimboy Rahmonov, Rahmatjon Qurbonov hamda estradamizning yorqin vakillari ustozning qo'shiqlarini ijro etib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. M.Naimov. "Surxon bulbuli", "Surxon tongi" gazetasi 2002 yil dekabr. 28- soni
2. Geldimurod Saidmalikov, Muzaffar Naimov "Ko'ngil bir navo istar□" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006 yil
3. M.Azimov. "Surxondaryo ijodkorlari" Qarshi nasaf nashriyoti 2006 yil
4. A.Muxammadiyev "El sevgan hofiz", " Surxon tongi" gazetasi 2010 yil, yanvar N1



MUSIQA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Nazarova Iroda Zayniddinovna

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani

37-umumiy o'rta talim maktabining musiqa madaniyati fani o'qituvchisi, SHuhrat medali sovrindori,

Xalq ta'limi a'lochisi

Tel: 90-165-52-63

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida an'anaviy xonandalik- maqom haqida tushunchalarni shakllantirishning dolzarb masalalari qamrab olingan. Shuningdek, muallif darsliklarda mumtoz ashulani o'rganish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar, musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi kamchiliklar, maqomlarni kuylash malakasining talab darajasida emasligi va ularni bartaraf qilishning yo'l-yo'riqlari haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Mumtoz, an'anaviy xonandalik, qo'shiqchilik, maqom, meros, diopazon, chormaqom, kichik oktava, improvizatsion ijrochilik.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar

tayyorlash milliy Dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib yosh avlodni milliy madaniyat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy-musiqiy merosimiz, xususan, maqomlarning o'rni hamda ahamiyati juda katta. Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri musiqiy merosimiz - maqomlar ijrochilik maktabi hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar badiiy estetik manbalar sifatida bola hissiyoti orqali uning aqlini, aql orqali esa hissiyotini tarbiyalash xususiyatiga egadir. Maqomlarga xos xususiyat aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida a'naviy fazilatning barcha qirralarini ongli ravishda o'zlashtirish orqali aqliy barkamollikka erishishni ta'minlashdan iborat. Xalq qo'shiqlari, maqomlarning qamrov doirasi chegaralanmagan. Mazkur ijro namunalari o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, ahloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra darsliklarga kiritish ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltiradi.

Hozirda ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga hurmat ruhida voyaga yetishini ta'minlashdan iboratdir. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mumtoz maqom yo'llarining nafis va dilkash, chuqur falsafiy ma'noga ega ta'sirchan cholg'u ila aytim navolari xalqimizni qadimdan bahramand etib kelmoqda. Maqomlarning asrlar osha yashab kelayotgani bir qator omillar, xususan, ustoz hofizu sozandalarning yuksak ijrochilik mahorati bilan chambarchas bog'liq. Xalq musiqa san'atining jonli jarayonini aks ettiruvchi mezon bu - ijrochilik amaliyotidir. Ijrochilik amaliyoti qanchalar ilg'or va salohiyatli bo'lsa, uning ijodiyotga ta'siri ham ulkan bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VI sinflari uchun S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirovlarning "Musiqqa" darsligi, O.Ibrohimov, J.Sadirov tomonidan yaratilgan VII sinf uchun "Musiqqa" darsliklarida mumtoz musiqa haqida tushuncha, kuylar, ashulalar, Shashmaqom, maqom turlari haqida bayon etilgan. Har bir mavzu bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tinglash va kuylash uchun ijro namunalari keltirilgan.

Darslik mavzularini o'rganish jarayonida kuylash amaliyoti bo'yicha ko'pgina mulohazalar yuzaga keldi, muammolar aniqlandi. VI sinf musiqa darsligida har bir chorakda muayyan mavzuni yoritishga qaratilgan. O'quvchilar choraklar davomida Shashmaqom, Chormaqom, Xorazm maqomlari ijrochilik maktablari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Biroq, maqom ashulalarini kuylash bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash uchun ijro namunalari taqdim etilmagan. Buning asosiy sababi, mazkur maqom ijrochiligi maktablarida



ashula namunalari katta diopozonli, yuksak ijrochilik mahoratini talab qiladigan asarlardan iborat. Shuning uchun mualliflar asarlarni berishdan mulohazaga borganlar. Ashulalarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, axloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra tanlashda voaha ashulachilik ijro namunalari - mumtoz ashula darajasidagi asarlari ko'plab uchraydi. Masalan, xalq qo'shiqlari "Sharob", "Tanovar", "Miskinlar",

"Farg'onacha", o'tmish bastakorlar ijodi "So'lim", "Dilxiroj", "Sallamno" kabi o'nlab ashulalar, mumtoz ashulalardan "Chorgoh 4", "Qashqarcha", "Rok", "Sarohbori", "Dugoh 2-3" taronalari shular jumlasidan.

Yosh avlodni milliy musiqiy merosimizni idrok eta oladigan barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda mazkur ashulalarning to'liq variantini darsliklarga kiritish lozim. Mavzu bo'yicha nazariy bilimlardan so'ng musiqa savodi va ijro asarlari mantiqan mavzuga mos bo'lishi lozim. Masalan, darslikda mumtoz musiqa haqida tushuncha berilib, musiqa savodi qismida mavzuga mos bo'lmagan mashqlarga dirijorlik qilish jarayoniga o'tilgan.

Bolalarning psixo-fiziologik holatlaridan kelib chiqib bir soatlik dars jarayonida bolaning xotirasini uch xil faoliyatga chalg'itmay, musiqa savodini ham, ashulani ham mavzuga mos ravishda tanlash kerak. Musiqa savodi qismida mumtoz musiqaga oid kalit so'zlar yoki atamalar maqom, bozgo'y, maqom nomlari va boshqalar berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ashula qismida mumtoz kuylar "Farg'onacha janon" "Ey sarviravon", "Sarohbori dugoh taronalari", "Qalandar", "Soqiynoma" va "Uforlar" tarannumini kiritish dars samaradorligini oshiradi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida musiqa ta'limi

yo'nalishi talabalarga "An'anaviy va xalq qo'shiqchiligi" fanidan o'tkazib kelayotgan amaliy mashg'ulotlar davomida katta tajriba to'plandi. Talabalar bilan ishlash jarayonida xalq qo'shiqlari, bastakorlar ijodi va mumtoz ashulalar namunalaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Natijada talabalar an'anaviy va xalq qo'shiqchiligi, mumtoz musiqa, mumtoz ashula ijrochiligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lmoqda.

Tanlangan asarlar talabalar ijro saviyasi va ovoz imkoniyatlariga mos, bir va

bir yarim oktava oralig'ida bo'lib, ovoz zo'riqishi va ruhiy qiyinchilik tug'dirmaydigan qulay ijrolardan iborat. Quvonarlisi, mashg'ulotlarda kuylangan asarlar yil yakunida "Hisobot konsert"lar hamda O'zbekiston teleradiokompaniyasining musiqiy ko'rsatuv va eshittirishlari, xususan, "Tarannum", "Ohanrabo", "Dilnavo", "Ko'hna zamin ohanglari", "Oltin meros" dasturlarida namoyish etiladi. Musiqa fani o'qituvchilarining barchasini ijrochilik mahoratini yuksak, deya olmaymiz. Hamma o'qituvchi ham iqtidorli xonanda emas, yoki aksincha sozanda emas. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisi o'z imkon darajasida faoliyat ko'rsatadi. Mutaxassislarning fikricha, maqom ijrochiligida necha-necha avlodlarga mansub mashhur honandayu sozandalarning ijroviy mohirligi va tajribalari bu sohani yuksalishiga olib kelgan. Bunda ustoz darajasiga yetgan bastakor va ijrochi o'zining ijodiy bisotidan shogirdlariga "yuqtirish" bilan mumtoz musiqa namunalari abadiylashtirishga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shogirdlar ham ushbu qoidaga amal qilgan holda ustozlardan olgan ilmiy-ijodiy malakalarini yanada sayqallashtirib, o'z navbatida kelgusi avlod vakillariga yetkazishga harakat qilish lozim Kaykovusning "Qobusnoma" asarining "Hofiz va sozandalik zikrida" nomli bobida bayon etilishicha, musiqa ilmining ustozlari ushbu muallif yashagan davrda xalqning har bir tabaqasi tabiatiga mos ravishda kuylar tuzishgan. Bunday tabaqalardan biri esa yosh bolalar va nozikta'b kishilar, ya'ni ayollar bo'lishgan. Bu qavm uchun, - deyiladi asarda - taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar. Chunki hamma vaznlarning orasida taronadin yoqimli vazn yo'qdur". XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida maqom ijro an'analari buyuk davomchilaridan biri, benazir hofiz va sozanda Abdulaziz Rasulov shogirdlarining ijodiy mahoratini oshirish maqsadida maqomlarni bilib olgan yosh ashulachilarga bitta ashulani turli variantlarda ko'rsatib, ularni mustaqil improvizatsiya qilishga o'rgatar edi. Ustoz



shogirdlaridan shu tariqa ijro ham ijodiy barkamollikka erishishni talab qilar edi.

"Ustoz-shogird" maktabi asosida maqomlarni o'rganish uzoq o'tmishda shakllangan va hozirgacha davom ettirilmoqda. Ijrochilik sabog'i azal-azaldan an'anaga ko'ra ustoz-shogird ko'rinishida amalga oshirilgan. Har bir shogird o'z ustozini nazoratida va tarbiyasida bo'lgan. Musiqa san'ati va badiiy adabiyotga xos bo'lgan soz chertish, ashula aytish, so'zni to'g'ri talaffuz qilish, she'r va g'azallarning ma'nosini anglash, musiqiy merosni o'rganish doimo ustozlarning nazoratida bo'lgan. Shogirdning xalq oldida, musiqa ixlosmandlari oldidagi mustaqil xonish qilishi ustozning bevosita ijozati bilan amalga oshirilgan.

Xonandalik ijro amaliyotiga ega bo'lmagan musiqa o'qituvchilarini maxsus kurslarda qayta tayyorlash, ularning mahoratini shakllantirish kerak. Aks holda ko'zlangan natijaga erishish mushkul.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-, 7-sinf darsliklaridagi mavjud kamchilikni to'ldirish uchun 250 dan ortiq "Shashmaqom" va 50 dan ortiq "Chormaqom" ashulalari tinglanib, o'quvchilar kuylay oladigan taronalar tanlab olinib, yangi "Mumtoz ashula" nomli musiqiy to'plam yaratishga kirishildi. Bu to'plamda har bir ijro namunasi to'liq holda berilib, kuylash tartib va qoidalari ko'rsatib o'tildi. Musiqa fanidan o'quvchilarda maqom haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlar va aniqlangan muammolarni bartaraf etish borasida keng ko'lamlil izlanishlar olib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'qituvchilarni qayta tayyorlash instituti va Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda "Mahorat maktabi" seminarlari muntazam o'tkazib, unda maktab darsliklarida uchrayotgan ayrim masalalar qayta ko'rib chiqilmoqda. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hayotida mavjud barcha sohalar qatori musiqa san'ati ham ajdodlarning bebaho merosidan bahramand bo'lmay turib taraqqiyotga erishishi mumkin emas. Shu bois, an'analarga sodiq qolish va ularga har lahzada tayanish kelajak samarasi, farzandlar istiqboli va barkamol avlod tarbiyasi garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov. D.Q. An'anaviy qo'shiqchilik. Iqtisod-moliya nashriyoti. 2008-yil.
2. Begmatov.S., Karimova.D., Mamirov.Q. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - T.: 2008-yil.
3. Ibrohimov.O., Sadirov.J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -T.: 2001-yil.
4. Mavrulov.A.A., Azimov.B.A. "Musiqiy ijrochilikda yoshlar faolligini oshirish va rivojlantirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. -T.: 2010-yil.



OPERA JANRI TARIXIGA BIR NAZAR.

Rahmonova Go'zal Ilhom qizi
Guliston Davlat Universiteti talabasi
+998945840814
gozalrahmonova8@gmail.com

Annotatsiya: opera janri eng qiyin janrlardan bo'lishiga qaramay hozirgi kunda kompozitorlar tomonidan ko'plab operalar yaratilmoqda. Opera janri estetik didni shakllantirishda ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: opera, janr, milliy dramatik teatr, haviy opera,

Opera lotincha so'zdan olingan bo'lib, mehnat mahsuli, asar degan ma'noni anglatadi. Opera san'ati murakkab sintetik janr hisoblanib teatr, she'riyat, raqs va musiqaning sahnadagi uyg'unlashuvidan tashkil topadi. Opera bir necha janrlarni birlashtirgan bo'lsa-da, ularning ichida musiqa alohida o'rin tutadi. Operaning badiiy ta'sir vositalari juda keng bo'lganligi sababli musiqa sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Opera murakkablik tomoni shundaki, operada barcha soha uyg'un bo'lishi kerak. Qahramonning ichki va tashqi ko'rinishi, tuyg'ularini musiqa, vokal, raqs va ijrochining harakatlari bir hilda ifodalab berishlari zarur. Operada xor jamoasi voqeani izohlovchi va xalq hayoti lavhalari gavdalantiriladi. Operada orkestrning muhim o'rni shundaki u vokal shakllariga jo'r bo'lib, mustaqil ijro jarayonida vaziyatni munosib baholab, ifodalab berishi zarur. Opera janri vujudga kelishi bilan cholg'u musiqasining yangi shakllari vujudga keldi. Uvertyura, orkestr, balet syuitasi va boshqalar shular jumlasidandir.

Operaning vatani Italiya bo'lib, Florensiyadagi Kamerata to'garagida vujudga kelgan. Bu to'garak ijodiy ish olib boruvchi to'garak bo'lib unda shoirlar, musiqachilar va san'at ixlosmandlari birlashgan edi. Florensiya operasining asoschilari shoir Ottavio Rinuchchini, musiqachilar Yakopo Peri va Julio Kachchinilar edi. Ilk Florensiya operasi "Dafna" hisoblanib, u Ottavio Rinuchchini va Yakopo Peri musiqasi asosida yaratilgan edi. "Dafna" operasi 1594-yilda Korsi uyida namoyish etilgan. Ikkinchi Florensiya operasi Ottavio Rinuchchini va Yakopo Perining Orfey haqidagi antik afsonasi asosida yaratilgan "Evredika" operasi hisoblanadi. Xuddi shu sujet asosida 1600-yilda Julio Kachchinining "Evredika" operasi yaratiladi.

Opera janri Rim, Vanetsiya va yevropaning bir qancha mamlakatlarida va keyinchalik esa jahonga tarqala boshlaydi. Bu jarayonda operaning bir qancha turlari: lirik tragediya, katta opera, opera seria, opera buffa, ingliz ballada operasi va nemis zingshpilli vujudga keladi.

O'zbekistonda esa opera janri XX asrning boshlarida o'zbek milliy dmusiqali dramasining rivojlanishi va chet el mumtoz operasining ta'sirida vujudga keldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida chet davlatlaridan opera truppalari gastrolga kelishi bilan o'zbek bastakorlari ham opera janriga qiziqish bildira boshlaydi. 1929-yilda Muhiddin qori Yoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushadi. Uning repertuarida asosan musiqali dramalar bo'lgan. Bu teatrda birinchi bo'lib M.Magomayevning "Nargiz" E.Brasilovskiyning "Er targ'in" operalari qo'yildi. O'zbek opera va balet truppasi o'zbek musiqali teatr zaminida yuzaga kelib, o'z faoliyatini M.Ashrafiy va S.Vasilenko yaratgan "Bo'ron operasi bilan boshladi.

"Bo'ron" operasida mamlakatimizda 1916-yilda bo'lib o'tgan chorizmga qarshi qo'zg'alon voqealari tasvirlangan. Bu operada bosh qahramon xalq bo'lganligi sababli ommaviy sahnalar ko'p va ahamiyatga egadir. Har bir sahnaning avjini xalq ijro etadi. Xor jamoasi xalq xolatini ko'rsatib berishida xalq kuylari va Hamza qo'shiqlaridan keng foydalanilgan. Hamzaning "Ishchi bobo" va "Biz ishchimiz" qo'shig'i shular jumlasidandir.



"Bo'ron" operasi sahnalashtirilishi milliy musiqali teatr hayotida alohida o'rin egallab, muhim voqea bo'ldi. Chunki aynan "Bo'ron" operasi premyerasidan so'ng musiqiy dramatik teatr O'zbek Davlat opera va balet teatri nomini oldi.

"Bo'ron" operasi yaratilganidan so'ng shu yillar davomida bir qancha turli mavzularda operalar yaratildi. Turli kompozitorlarning "Alisher Navoiy", Mahmud Tarobiy", "Ulug'bek" nomli tarixiy vatanparvarlik ruhidagi operalari, "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Gulsara" kabi ishqiy sarguzasht operalari va yana bir qancha operalar namoyishi tomoshabinlar tomonidan ko'ngildagidek qarshi olindi.

O'tgan asrning 50-yillari oxiri milliy operamizning yangi janri vujudga kelishi bilan farqlanadi. 1958-yilda Sulaymon Yudakov tomonidan yaratilgan "Maysaraning ishi" nomli ilk o'zbek hajviy operasi dunyoga keldi. Mazkur opera librettosi Hamza Hakimzoda Niyoziyning shu nomli pyesasi asosida S.Abdulla va M.Muhamedovlar tomonidan yaratilgan va Vladimir Kandelaki sahnalashtirgan.

"Maysaraning ishi" operasida Maysara, Oyxon, Cho'ponali, Hoji Darg'a, Hidoyatxon va qozi obrazlari asosiy obrazlar hisoblanadi. Operada Maysara hiylagar aqlli ayol sifatida tasvirlangan va shu bilan birga diniy ulamolarning ba'zi qilmishlari qattiq qoralanib xazil tariqasida ijro qilingan. Opera voqealari bir biridan qiziq bo'lib, ariyalar va musiqa ham voqealarga mos ravishda tanlangan. Operaning mazmuni Cho'ponali va go'zal Oyxon Maysaraning hovlisida uchrashib turishidan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda o'zbek milliy musiqamiz keng tarzda rivojlanib borishida kompozitorlarimiz ijodi katta o'rin tutadi.

Adabiyotlar

- 1.A.X.Trigulova-"Xorijiy musiqa adabiyoti" Toshkent ILM ZIYO-2009
- 2.B.Madrimov "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent-2015



MILLIY CHOLG'ULARIMIZ KECHASI VA BUGUNI.

Shoimqulov Umidjon Husniddin o'g'li
Guliston ixtisoslashlashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi
+99 894 910 49 38
shoimqulovumidjon@gmail.com

Annotatsiya: hozirgi kunda butun O'zbekiston va jahonga mashhur cholg'ularimiz tarixini o'rganish biz musiqachilar uchun shart. Ushbu maqolada mustaqil izlanuvchilar uchun tushunarli bo'lgan tarixiy ma'lumotlar aks ettirilgan. Milliy cholg'ularimiz avvaliga qanday bo'lgani qaysi davrdan buyon hozirgi holatiga kelganligi haqida maqolada yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy cholg'u, milliy musiqa, rekonstruksiya, o'zbek xalq cholg'ulari,

Musiqa bir necha mingyilliklardan buyon tarbiya vositasi sifatida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Musiqa san'atning muayyan qadimiy turi bo'lib, ohang va ritm (usul) asosida vujudga keluvchi inson fikrlari, tafakkuri va hissiy kechinmalarini ifodalab beruvchi sohadir.

Bilamizki o'zbek milliy cholg'ulari va milliy musiqasi juda qadim tarixga ega. Vatanimiz xududidan arxeologik qazilma ishlari natijasida topilgan manbalarga asosan miloddan avvalgi 10-mingyillikka tegishli zarbli cholg'ular tasvirlangan qoyatoshlar va antik davrga aloqador hozirgi nay asbobiga o'xshash suyakdan yasalgan cholg'u topilgan. Garchi o'sha davrlardan san'at va madaniyatimiz rivojlanib borgan bo'lsada, o'rta asrlarga kelibgina milliy cholg'u va milliy kuylarimiz ommalashib ma'lum tartibga solingan. O'rta asrlarda musiqa sohasi hali alohida mukammal soha sifatida ajralmagan edi. Bu davrda musiqa ilmi matematika ilmining tarkibiy qismi hisoblangan. Aynan shu davrdan musiqani mukammal soha qilish uchun sa'y-harakatlar boshlangan. Musiqa haqida turli risolalar bitilgan. Jumladan O'rta Osiyoning buyuk donishmandlari bo'lmish al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy, al-Husayniy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy kabi bir qator olimlar shular jumlasidandir.

Davrlar va zamonlar o'zgargani sayin inson hayotida rivojlanish bo'lib, barcha atrof olamdagi predmetlar inson idroki bilan o'rganilib rivojlantirilgan. Shu qatorda cholg'ular ham davrlar jarayonini o'tab, hozirgi kundagi holatiga kelgan. Ushbu ko'rinishga kelguncha bir necha yillar davomida yetuk ustalar ish olib borishgan.

Xalq orasida ommalashgan musiqiy cholg'ularimiz avvaliga diatonik tovushqatorida bo'lganligi bizga ma'lum. Milliy cholg'ularimizni xromatik tovushqatorga o'tkazish masalisida o'tgan asrning 30-40-yillarida A.I. Petrosyans rahbarligidagi bir guruh ustalar ish olib borishgan. Albatta bu jarayonga qarshi, bu ishlardan naf chiqmasligini aytganlar ham bo'lgan. Ammo o'z ishining ustasi bo'lgan yangilikka intiluvchi ushbu shaxslar o'z maqsadlari yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishgan. Rekonstruksiya qilish jarayonidan ko'zlangan maqsadlar tovush sifatini oshirish, jahon standartlariga javob beruvchi xromatik tovushqator hosil qilish, va o'zbek milliy cholg'ular oilalarini yaratib, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri hosil qilish edi. Va nihoyat bu maqsadga erishildi, yangi cholg'ular hosil qilindi. Har bir milliy cholg'umizning oilalari tashkil etilib, amaliyotda sinash uchun topshirildi. Rekonstruksiya jarayonida milliy cholg'ularimiz diapozoni belgilanib notalashtirildi. Ijro uslublari tashkil qilindi. Rekonstruksiya qilingan cholg'ular ko'pchiligi o'zini oqladi ba'zilar esa keyinchalik iste'moldan chiqdi. Mazkur cholg'ulardan 1938- yilda ilk bor o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil etildi. Endilikda mazkur orkestr barcha musiqiy ta'lim muassasalarida tashkil etila boshladi.

1933-yilda chop etilgan V. Belyayevning "Музыкальные инструменты Узбекистана" (O'zbekistonning musiqa cholg'ulari) kitobida XX asrda mavjud bo'lgan barcha musiqiy cholg'ular haqida ma'lumotlar bor. Belyayev bu kitobida musiqa cholg'ularini 3 ta katta



guruhga bo'ladi. Rekonstruksiya jarayonidan so'ng o'zbek xalq cholg'ulari 5 ta guruhga bo'lindi va orkestr partiturasidagi o'rinlari belgilandi.

O'zbek xalq cholg'ularida rekonstruksiya jarayonidan so'ng turli ijro uslublari yaratildi. Endilikda milliy cholg'ularimizning yangi ko'rinishida mahoratli xromatik asarlar ijro qilish imkoniyati kengaydi. Nota matnlari bazasi o'zbek bastakorlari ijodining yangi namunalari va jahon kompozitorlari asarlarining o'zbek xalq cholg'ulariga moslashtirilgan nota matnlari bilan kengaytirildi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik gurkirab rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lib, iqtidorli yoshlarni bu sohaga qiziqtirish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'.Toshmatov, X.Beknazarov "cholg'ushunoslik " (darslik) Toshkent-2015
- 2.B.Madrimov "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent-2015



МУСИҚА ТИНГЛАШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ МУСИҚИЙ - НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШ КАЛИТИ

Исакова Дилноза Назиржон кизи

Наманган вилояти Учкурғон тумани 44-мактаб Муסיқа фани уқитувчиси

Телефон: +998 (93) 495 64 94 Isaqovazizbek665@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада умумтаълим мактабларида ўқитиладиган "муסיқа маданияти" фанининг ўзига хос хусусияти ҳамда фанни ўқитилишининг табиий қонуниятлари, айниқса, бошланғич синф ўқувчиларида муסיқа асарларини тинглаш, таҳлил қилиш, куйлаш ва онгли идрок этиш ҳиссий ва руҳий кечинмалар билан боғлиқ равишда содир бўладиган мураккаб педагогик ва психологик жараҳнар хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: Муסיқа маданияти, муסיқий фаолият, муסיқа тинглаш, муסיқа саводи, ритмик ҳаракатлар, амалий ижрочилик, жўр бўлиш, куй гўзаллиги, бадиий нафосат, эстетик дид, ижрочилик, муסיқий бадиий дид, муסיқий образлилик, репертуар, оркестр, хор.

